



AKSIYADORLIK JAMIYATI MOLIYASINI BOSHQARISHDA XORIJIY ILG'OR AMALIYOTLAR

MANAGEMENT OF JOINT-STOCK COMPANY FINANCES BASED ON ADVANCED INTERNATIONAL PRACTICES

¹Xusainov Shavkat

¹I.f.n., Raqamli iqtisodiyot va agrotexnologiyalar universiteti dotsenti

Annotatsiya Annotation

Uzb - Maqolada xorijiy mamlakatlarda aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy avtomatlashtirilgan moliyaviy boshqaruv tizimlaridan foydalanish tajribalari tahlil qilingan. SAP, Oracle Financials va Microsoft Dynamics kabi platformalardan samarali foydalanish natijasida kompaniyalarning moliyaviy ko'rsatkichlari kuzatuvi, xatolarni aniqlash va bartaraf etish imkoniyatlari kengayishi ta'kidlangan. Ssenariyli rejalashtirish va modellashtirish vositalari (SAP BPC, Oracle Hyperion) yordamida kapital oqimlarni boshqarish va investitsiya qarorlarini tezkor qabul qilish imkoniyatlari ochib berilgan. Shuningdek, xalqaro standartlarga asoslangan moliyaviy hisobot va innovatsion loyihalarga investitsiya kiritish orqali iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash masalalari yoritilgan. Uzoq muddatli moliyaviy strategiyalarni ishlab chiqishda raqamlashtirish va avtomatlashtirish texnologiyalarining ahamiyati alohida ko'rsatilgan.

Eng - The article analyzes the experience of using modern automated financial management systems in joint-stock companies of foreign countries. It emphasizes that effective use of platforms such as SAP, Oracle Financials, and Microsoft Dynamics enhances the capabilities for monitoring financial indicators, identifying, and addressing errors. It is noted that tools for scenario planning and modeling (SAP BPC, Oracle Hyperion) enable companies to manage capital flows optimally and make prompt investment decisions. The article also highlights issues of ensuring economic stability through financial reporting in accordance with international standards and investing in innovative projects. The importance of digitization and automation technologies in the development of long-term financial strategies is particularly emphasized.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ aksiyadorlik jamiyatlari, moliyaviy boshqaruv, avtomatlashtirish, ssenariyli rejalashtirish, modellashtirish, xalqaro standartlar, innovatsion loyihalar, uzoq muddatli strategiyalar, raqamlashtirish, investitsiya.

❖ joint-stock companies, financial management, automation, scenario planning, modeling, international standards, innovative projects, long-term strategies, digitization, investments.

Kirish.

Moliyaviy boshqaruv har qanday aksiyadorlik jamiyatining asosiy funksiyalaridan biri bo'lib, uning samaradorligi

kompaniyaning barqarorligi va rivojlanishini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Xorijiy mamlakatlarda to'plangan ilg'or tajribalar O'zbekiston aksiyadorlik jamiyatlari

uchun moliyaviy boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish imkoniyatini taqdim etadi. O‘zbekiston moliyaviy boshqaruv tizimini xorijiy tajribalar asosida moliyaviy rejalashtirish, tahlil va prognozlashtirish sohasidagi muhim jihatlarni yoritadi.

O‘zbekistondagi aksiyadorlik jamiyatlari uchun bunday yondashuvni joriy etish muhimdir, chunki real vaqtda tahlil kompaniyalarning tezkor moliyaviy qarorlar qabul qilishini ta‘minlaydi. Ayniqsa, iqtisodiy o‘zgarishlarga sezgirlik talab qiladigan sektorlarda bunday mexanizmlar yuqori samaradorlikni ta‘minlashi mumkin.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-mayda qabul qilingan PQ-162-sonli “Raqamli xizmatlar qamrovi va sifatini oshirish hamda soha, tarmoq va hududlarni raqamli transformatsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, byurokratik tartibotlarni qisqartirish, shuningdek, davlat boshqaruvi, iqtisodiyotning real sektori tarmoqlarini hamda hududlarni raqamli transformatsiya qilish aksiyadorlik jamiyatlarida raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali ularning samaradorligini oshirish vazifalari belgilangan[1]. Xorijiy tajribadan olingan yondoshuvlar O‘zbekiston aksiyadorlik jamiyatlari uchun moliyaviy boshqaruv tizimini takomillashtirishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Real vaqtda tahlil qilish imkoniyati, zamonaviy modellashtirish vositalari va jarayonlar shaffofligini ta‘minlash kabi yo‘nalishlar kompaniyalarning iqtisodiy barqarorligini mustahkamlashga yordam beradi. Ushbu yondashuvlarni amalga oshirish milliy kompaniyalarning raqobatbardoshligini oshirish va ularning jahon bozorida o‘z o‘rnini mustahkamlash uchun muhim qadam bo‘ladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotda tizimli yondashuv, qiyosiy va solishtirma tahlil, umumlashtirish, kompleks baholash, abstrakt-mantiqiy fikrlash kabi usullardan foydalanilgan.

Adabiyotlar sharhi.

Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy jarayonlarni samarali boshqarishda real vaqt rejimida tahlil qilish imkoniyati katta ahamiyatga ega. Iqtisodchi olim Jon Kotterning fikriga ko‘ra, bunday avtomatlashtirilgan tizimlar kompaniyalarning raqobatbardoshligini sezilarli darajada oshiradi va moliyaviy ma‘lumotlarning ishonchligini ta‘minlaydi[2].

Shuningdek, moliyaviy modellashtirish vositalari orqali moliyaviy jarayonlarni samarali boshqarish masalalari oid tadqiqotlar keng amalga oshirilmoqda. Xususan, rivojlangan davlatlarda moliyaviy modellashtirishni samarali olib borish uchun bir qator zamonaviy ilmiy yondoshuvlardan foydalaniladi. Masalan, iqtisodchi olim Robert Kaplanning ta‘kidlashicha, moliyaviy modellashtirish kompaniyalarning uzoq muddatli strategik rejalarini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi[3]. Kaplan va Nortonning Balanslashtirilgan ko‘rsatkichlar (Balanced Scorecard) modeli moliyaviy jarayonlarni strategik maqsadlar bilan bog‘lashda ko‘plab kompaniyalar uchun samarali yondashuv sifatida xizmat qiladi.

Moliyaviy boshqaruvga bag‘ishlangan tadqiqotlarda risklarni aniqlash moliyaviy operatsiyalarning har bir bosqichida turli risklarni tahlil qilishni talab qiladi, Tomas Sadoskining ta‘kidlashicha, risklarni aniqlash va ularga reaksiya tizimini yaratish har qanday yirik kompaniyaning moliyaviy barqarorligini saqlash uchun muhim qadam hisoblanadi[4]. Risklarni aniqlash va boshqarishda avtomatlashtirilgan sistema va dasturlardan foydalanish juda muhim. Maxsus risk-analiz vositalari kompaniyaga moliyaviy risklarni oldindan aniqlash va monitoring qilish imkonini beradi. E.Xeffernamning fikricha, bu kabi avtomatlashtirilgan vosita-platformalar Yevropa kompaniyalari orasida keng tarqalgan va ularning moliyaviy risklarini sezilarli darajada kamaytirishga yordam bergan[5].

Diversifikatsiya moliyaviy resurslarni turli yoʻnalishlarga yoʻnaltirish orqali, bir manbaga bogʻliqlikni kamaytirish va yuqori xavflarga qarshi barqarorlikni oshirish imkonini beradi. Masalan, agar kompaniya faqat bir bozorda faoliyat koʻrsatayotgan boʻlsa, iqtisodiy yoki siyosiy oʻzgarishlardan taʼsirlanishi mumkin. Diversifikatsiyalash orqali kompaniya turli yoʻnalishlardagi imkoniyatlardan foydalanishga va risklarni kamaytirishga erishadi. Charlz Xendersonning tadqiqotiga koʻra, diversifikatsiyalangan investitsiya portfelli xavflarni 40%gacha kamaytirishga imkon beradi[6].

Shuningdek, moliyaviy boshqaruv tizim muammolari tahlil oʻtkazgan Harvard Business Review jurnali, shaffof moliyaviy hisobotlar va aksiyadorlar bilan munosabatlarning samarali boshqarilishi kompaniyalarning kapitalni jalb qilishda va uzoq muddatli investitsiya strategiyalarini amalga oshirishda muvaffaqiyatli boʻlishini taʼminlaydi, deb hisoblaydi[7]. Ular hamda “Aksiyadorlar bilan samarali muloqot” mavzuida 2019 yilda olib borilgan tadqiqotlarga asoslanib, kompaniyalar oʻzlarining moliyaviy axborotini toʻgʻri va aniq berish orqali global bozordagi raqobatni yanada yaxshilashga erishishlarini bildirganlar.

Shu jihatdan olganda, P.Druker, menejment sohasidagi murakkab tadqiqotlar olib borgan olim sifatida korporativ boshqaruvda aksiyadorlar bilan samarali aloqalar oʻrnatishning muhimligini taʼkidlashi muhimdir[8]. Uning fikricha, kompaniya faoliyatining har bir yoʻnalishi, aksiyadorlarning manfaatlarini himoya qilish va ularga aniq, shaffof maʼlumot berish asosida yaxshiroq boshqariladi. Bu, oʻz navbatida, aksiyadorlar oʻrtasida ishonchni oshirish va kompaniyaning moliyaviy oʻsishini taʼminlashga yordam beradi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Xorijiy mamlakatlarda koʻpgina aksiyadorlik jamiyatlari zamonaviy avtomatlashtirilgan tizimlardan foydalanadi,

ular kompaniya moliyaviy holatini kunlik, hatto soatlik asosda kuzatish imkonini beradi. Masalan, AQSh va Yevropa mamlakatlarida moliyaviy jarayonlarni monitoring qilish uchun SAP, Oracle Financials, yoki Microsoft Dynamics kabi platformalar keng qoʻllaniladi. Yaqinda olib borilgan Yevrostat tahlillariga koʻra, Yevropadagi yirik kompaniyalarning 85% moliyaviy boshqaruvda avtomatlashtirilgan platformalardan foydalanish natijasida oʻz samaradorligini oshirgan[9]. Ushbu tizimlar orqali moliyaviy koʻrsatkichlarning oʻzgarishini kuzatish, jarayondagi xatolarni oʻz vaqtida aniqlash va ularni bartaraf etish mumkin.

Shuningdek, Kaplan va Nortonning Balanslashtirilgan koʻrsatkichlar (Balanced Scorecard) modeliga oid tadqiqot natijalariga koʻra, Yevropa kompaniyalarining 78%i zamonaviy modellashtirish vositalari (SAP BPC, Oracle Hyperion va boshqalar)dan foydalanish orqali oʻz moliyaviy prognozlarini yaxshilashga erishgan[3]. Masalan, MS Excel dasturi moliyaviy ssenariylarni tahlil qilish uchun qulay platforma hisoblansa, MATLAB yoki Python kabi dasturlash vositalari orqali chuqurroq va murakkab modellashtirish ishlari amalga oshiriladi. Bundan tashqari, SAP Business Planning and Consolidation yoki Oracle Hyperion Planning kabi maxsus dasturiy taʼminotlar prognozlashtirish va budjet rejalashtirish jarayonlarini soddalashtiradi.

Moliyaviy modellashtirish vositalarining eng muhim jihati shundaki, ular kompaniya uchun bazaviy, optimistik va pessimistik ssenariylar ishlab chiqish imkonini beradi. Masalan, Yevropa kompaniyalari kapital oqimlarini optimal boshqarish maqsadida har bir ssenariy boʻyicha moliyaviy rejalarini tayyorlaydi. Yevrostat maʼlumotlariga koʻra, Yevropa Ittifoqi kompaniyalarining 68%i ssenariyli rejalashtirish vositalaridan foydalangan holda, oʻz investitsiya qarorlarini tezkorlik bilan qabul qilishni taʼminlaydi[10]. Shu bilan birga, Britaniya tadqiqot institutining 2023-yilgi hisobotiga koʻra, ssenariyli

rejalashtirish jarayonida ishtirok etgan kompaniyalarning 72%i iqtisodiy zarbalariga nisbatan barqarorlikni oshirishga erishgan[11]. Bunday yondashuv tashqi omillarni hisobga olib, moliyaviy risklarni minimallashtirish imkonini beradi. Bu rejalar nafaqat tashqi omillarni, balki ichki resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlarini ham ko'zda tutadi. O'zbekiston kompaniyalari uchun bunday modellashtirish vositalarini joriy etish strategiyaviy qarorlar qabul qilishni osonlashtiradi va moliyaviy barqarorlikni ta'minlaydi.

Xorijiy mamlakatlarda moliyaviy jarayonlarning shaffofligini ta'minlash kompaniyalarning ishonchliligi va aksiyadorlar bilan munosabatlarini mustahkamlashda muhim omil hisoblanadi. Masalan, AQSh va Yevropa aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar (IFRS yoki GAAP) asosida tayyorlab, ularni aksiyadorlar va jamoatchilik uchun ochiq qiladi. Bundan tashqari, kompaniya rahbariyati va aksiyadorlar o'rtasidagi muntazam muloqot moliyaviy rejalashtirish jarayonini yanada samarali qiladi.

Jahon moliyaviy bozorlarida amalga oshirilayotgan strategik qarorlar ko'pincha innovatsion loyihalarga va yuqori samaradorlikka ega bo'lgan sektorlarga investitsiya qilishga qaratilgan. Masalan, texnologik startaplar, ekologik toza energiya manbalari, yoki sun'iy intellekt sohasidagi loyihalar, kompaniyalar uchun katta potensialga ega[12]. Ma'lumotlarga qaraganda, 2022-yilda yangi energetika kompaniyalariga qo'yilgan investitsiyalar 30% ga oshdi, buni ayrim rivojlangan mamlakatlarda ekologik o'zgarishlarga qarashlarini o'zgartirishga yo'naltirgan strategiyalar yaratish uchun ishlatilgan[13].

Strategik investitsiyalar natijasida kompaniyalar nafaqat iqtisodiy manfaatlarga, balki ijtimoiy mas'uliyatga ham ega bo'ladilar. Masalan, Google va Tesla kabi yirik korporatsiyalar yangicha ekologik loyihalarga

investitsiya kiritish orqali nafaqat moliyaviy muvaffaqiyatga erishmoqda, balki jamiyatga xizmat qilishda ham muhim rol o'ynamoqda. 2019 yilda Tesla, ekologik toza transport vositalari ishlab chiqarish uchun \$1 milliardlik investitsiya loyihasini amalga oshirdi, va buni natijasida uning aksiya narxi 200% ga oshdi[14].

Uzoq muddatli moliyaviy strategiyalar faqatgina yangi investitsiyalarga emas, balki kompaniyaning ichki moliyaviy jarayonlarini optimallashtirishga ham qaratilgan. Raqobatga kirishish va samaradorlikni oshirish uchun, kompaniyalar xarajatlarni kamaytirish, moliyaviy tahlillarni yuksaltirish va ichki jarayonlarni avtomatlashtirish uchun aniq choralar ko'rishadi. Buning natijasida, kompaniyalar moliyaviy resurslarini samarali taqsimlaydi, ishlab chiqarishni optimallashtiradi va xarajatlarning iqtisodiy samarasini yaxshilaydi.

Shu bilan birga, zamonaviy raqamlashtirish va avtomatlashtirish tizimlaridan foydalanish samaradorlikni oshirishda katta ahamiyatga ega. Ko'plab yirik kompaniyalar moliyaviy tahlil va hisobotlar uchun maxsus dasturiy ta'minotlardan foydalanmoqda. Masalan, IBM va SAP kabi kompaniyalar moliyaviy prognozlash va tahlil qilishda sun'iy intellektga asoslangan dasturlardan foydalanishgan[15]. Bu zamonaviy tizimlar 2023 yilda kompaniyalar uchun xarajatlarni 20% ga kamaytirish va moliyaviy risklarni 15% ga kamaytirishga yordam bergani to'g'risidagi statistikadan ma'lum bo'ladi[16].

Uzoq muddatli moliyaviy strategiyalar jahon moliyaviy bozorlarida kompaniyalarning muvaffaqiyatini ta'minlash va ularning raqobatdoshligini saqlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Investitsiya yo'nalishlarida innovatsion loyihalarga va ekologik toza texnologiyalarga e'tibor qaratish, kompaniyalarning barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlashga yordam beradi. Shu bilan birga, ichki moliyaviy jarayonlarni optimallashtirish

va xarajatlarni samarali boshqarish uchun strategik choralar ishlab chiqish, kompaniyalarga moliyaviy samaradorlikni oshirish va ularning raqobatbardoshligini saqlashga imkoniyat yaratadi[17]. Mazkur strategiyalarni to'g'ri amalga oshirish orqali, kompaniyalar o'z moliyaviy barqarorligini saqlash va bozordagi o'rnini mustahkamlash imkoniga ega bo'ladilar.

Har qanday mamlakat yoki kompaniya o'z moliyaviy strategiyasini aniq belgilashda bir necha omillarni e'tiborga oladi. Ushbu strategiyalar nafaqat moliyaviy samaradorlikni oshirish, balki barqaror rivojlanishni ta'minlashga ham qaratilgan. Zamonaviy investitsiya strategiyalari esa innovatsion moliyaviy vositalarni va yashil moliyani o'z ichiga oladi. Bu ikki yo'nalishning ahamiyati va ularning qo'llanilishi jahon miqyosida ko'plab kompaniyalar va iqtisodiyotlarda o'zining ijobiy natijalarini ko'rsatmoqda[18].

Innovatsion moliyaviy vositalar - bu o'zgarishlarga muvofiqlashtirilgan yangi moliyaviy mahsulotlar, ular moliyaviy bozorlarning dinamikasiga tezda javob berishi mumkin. Yevropa va AQSh kompaniyalari, misol uchun, moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish uchun obligatsiyalarni chiqarish, ventur kapitallari jalb qilish va IPO (Initial Public Offering - Dastlabki ommaviy taklif) jarayonlarini amalga oshirishda keng tajribaga ega.

Obligatsiyalar - bu kompaniyalar va davlatlar tomonidan ko'pincha uzoq muddatli moliyalashtirish uchun ishlatiladigan muhim vositadir. Yevropa davlatlarida obligatsiyalar ko'pincha rivojlanishga qaratilgan loyihalarni moliyalashtirish uchun ishlatiladi. Germaniyadagi kompaniyalar, masalan, infratuzilma loyihalariga sarmoyalarni jalb qilish uchun “yashil obligatsiyalar” chiqarishadi[18]. Shuningdek, ijtimoiy va ekologik foydaga qaratilgan investitsiyalar uchun yashil obligatsiyalar ommalashmoqda. Yashil obligatsiyalar bir qator manfaatlarni,

jumladan ekologik barqarorlikni ham ta'minlashga yo'naltirilgan.

Ventur kapitallar - yangi va innovatsion loyihalarga investitsiya qilishning yangi usullaridan biri bo'lib, asosan texnologiyalar, startaplar va yosh bizneslar uchun kerakli mablag'ni topishda muhim rol o'ynaydi[19]. Ventur kapitallari har qachon o'sishdagi kompaniyalar uchun aniq yo'nalishlarda foyda olish imkoniyatlarini taklif etadi. AQSh va Yevropa davlatlarida ventur kapitallari ko'pincha oliy ta'lim va innovatsion loyihalarni moliyalashtirish uchun ishlatiladi.

IPO jarayonlari investitsiya strategiyalarida muhim rol o'ynaydi, chunki kompaniyalarga ommaviy taklif orqali moliyalashtirish manbalarini oshirish imkonini beradi. 2019-yilda AQShning *Nasdaq* va *New York Stock Exchange* birjalarida jami \$70 milliarddan ortiq mablag'lar IPO orqali jalb qilindi[20] Bu jarayonlar kompaniyalarga keng auditoriyaga o'z brendlarini yoyish va shunga muvofiq bozordagi o'z pozitsiyalarini mustahkamlashga yordam beradi.

Yashil moliya (green finance) va energiya samaradorligi (energy efficiency) - zamonaviy iqtisodiyotda eng muhim yo'nalishlardan biridir. Ko'pgina xorijiy kompaniyalar va davlatlar yashil loyihalarni moliyalashtirish uchun maxsus obligatsiyalar chiqaradi. Bu ishlarining barcha maqsadi - atrof-muhitni muhofaza qilish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini foydalanish va energiya samaradorligini oshirishdir. “Energy Transition Commission” ma'lumotlariga ko'ra har yili jahonda ekologik toza energiyaga sarmoya kiritish \$300 milliardga yetmoqda[21].

Yashil obligatsiyalar, masalan, ekologik toza energiya loyihalariga sarmoya kiritishni nazarda tutadi. 2021-yilda global yashil obligatsiyalar bozori \$300 milliarddan oshdi, va Yevropa Ittifoqi o'zining yashil moliyani qo'llab-quvvatlash bo'yicha katta yo'nalishlar belgilangan[23]. Ushbu vositalar ekologik barqaror loyihalarga sarmoya kiritish orqali

yangi investitsiyalar jarayonlarini amalga oshirishga ko'maklashadi.

Energiya samaradorligiga e'tibor bergan kompaniyalar o'z xarajatlarini kamaytirish va ekologik tavakkalchiliklarni oldindan baholash orqali yangi investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Masalan, Germaniyadagi *EON* kompaniyasi maxsus yashil obligatsiyalar chiqaradi. Energiya samaradorligini oshirish bo'yicha Yevropa qo'shma platforma (European Joint Platform) har yili 15% energiya samaradorligi oshirishni ta'minlash uchun mablag'larni jalb qilmoqda[23].

Innovatsion moliyaviy vositalar va yashil moliyaning birgalikda qo'llanilishi zamonaviy iqtisodiyotda muhim strategik ahamiyat kasb etadi. Yevropa va AQSh kompaniyalari o'z investitsiya strategiyalarini diversifikatsiya qilish, yangi moliyaviy mahsulotlarni ishlab chiqish va yashil loyihalarga moliya kiritishda eng samarali usullarni ishlatishmoqda[24]. Buning natijasida, nafaqat moliyaviy barqarorlik, balki ekologik va ijtimoiy barqarorlik ham ta'minlanadi.

Shu bilan birga, yashil moliya, innovatsion moliyaviy vositalar va energiya samaradorligining muvaffaqiyatli amaliyoti global iqtisodiyotning yangi yo'nalishlarini shakllantirishga imkon beradi. Bu strategiyalar nafaqat moliyaviy barqarorlik, balki umumiy ijtimoiy rivojlanishga ham e'tibor qaratiladi.

Xulosa va takliflar.

Xorijiy tajribalar O'zbekistondagi aksiyadorlik jamiyatlariga ham o'z bizneslarida ushbu strategiyalarni joriy qilishda yordam berishi mumkin. O'zbekistondagi yirik kompaniyalar uchun, jahon bozoridagi

o'zgarishlarga tezkor javob berish va moliyaviy risklarni kamaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Xorijiy tajribalar, ayniqsa, avtomatlashtirilgan sistema va xedjirlash strategiyalarini joriy etish orqali, O'zbekistondagi kompaniyalar global darajada raqobatbardoshligini oshirishlari mumkin. Bu, o'z navbatida, ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlash va bozordagi o'rnini mustahkamlashga yordam beradi.

Kelgusida, moliyaviy risklarni samarali boshqarish va ularni minimallashtirish strategiyalari O'zbekistondagi kompaniyalar uchun ham katta ahamiyatga ega bo'ladi. Texnologiyalarning rivojlanishi va avtomatlashtirishning ko'payishi, moliyaviy bozorlardagi xavflarni tushunish va ularga tegishli reaksiyalarni ta'minlashda yangi imkoniyatlar yaratadi. Demak, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash uchun mazkur usullarni joriy qilish O'zbekistondagi aksiyadorlik jamiyatlarining kelajakdagi rivoji uchun muhim qadam bo'ladi.

Uzoq muddatli moliyaviy strategiyalar kompaniyalar uchun moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda va raqobatdoshlikni oshirishda asosiy rol o'ynaydi. Bu strategiyalar ikkita muhim yo'nalishga e'tibor qaratishi kerak: investitsiya yo'nalishlari va ichki moliyaviy jarayonlarni optimallashtirish. Investitsiyalar yangi texnologiyalar, ekologik toza ishlab chiqarish yoki yuqori o'sish potensialiga ega bozorlarga yo'naltiriladi. Bundan tashqari, ichki moliyaviy jarayonlarning samaradorligini oshirish ham muhim ahamiyat kasb etadi, chunki bu kompaniyalarga moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash va uzoq muddatdagi barqarorlikni saqlash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-mayda qabul qilingan PQ-162-sonli "Raqamli xizmatlar qamrovi va sifatini oshirish hamda soha, tarmoq va hududlarni raqamli transformatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorda. <https://nrm.uz>
2. Kotter J. P. Leading Change. Harvard Business Review Press. 1996.

3. Kaplan R.S., Norton D.P. The Balanced Scorecard: Translating Strategy into Action. Harvard Business Review Press, 1996.
4. Sadowski, T. (2017). Risk Management in Financial Markets. New York: Financial Times Press.
5. Heffernan, E. (2019). Hedging and Risk Management in Global Markets. London: Wiley Finance.
6. Henderson, C. (2021). Investment Diversification and Risk. Journal of Financial Economics, 34(2), 112-128.
7. Harvard Business Review. (2019). The Role of Effective Shareholder Engagement. <https://hbr.org/2019/06/the-role-of-effective-shareholder-engagement>
8. Drucker P. The Practice of Management. London: Routledge, 2012.
9. <https://ec.europa.eu/eurostat/web/products-eurostat-news/-/ddn-20220609-1>
10. <https://ec.europa.eu/eurostat>.
11. https://www.ey.com/ru_kz/ceo/ceo-outlook-july-2023-on-ai-transformation
12. Statista. (2022). Investment Trends in Technology and Renewable Energy. Statista. <https://www.statista.com>
13. World Economic Forum. (2022). Global Risk Report 2022. World Economic Forum. <https://www.weforum.org/reports/global-risks-report-2022>
14. Tesla Annual Report. (2019). Tesla Annual Impact Report. Tesla, Inc. <https://www.tesla.com>
15. SAP. (2023). SAP's Role in Financial Process Optimization. SAP. <https://www.sap.com>
16. IBM. (2023). Artificial Intelligence in Financial Management. IBM. <https://www.ibm.com>
17. Harvard Business Review. (2021). Strategic Financial Management in the Modern Economy. Harvard Business Publishing. <https://hbr.org>
18. European Investment Bank (EIB). Green Bond Impact Report. 2020.
19. International Energy Agency (IEA). Energy Efficiency 2020.
20. Nasdaq and New York Stock Exchange (NYSE). Annual Report on IPO Activity. 2019.
21. Energy Transition Commission. Making the Transition to Net Zero. 2021.
22. OECD (Organisation for Economic Co-operation and Development). "Green Finance and Investment: Mobilising Investment for Green and Low-Carbon Infrastructure. 2020.
23. Palisade Corporation. Risk Analysis and Decision Making in Investment Strategy.
24. World Bank. Global Investment Trends. 2021.